

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **ALISHER NAVOIY AN'ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI**

**Namunaxon TURSUNOVA**

*Qo'qon universiteti*

[tursunovanamunaxon1992@gmail.com](mailto:tursunovanamunaxon1992@gmail.com)

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804807>**

**Annotatsiya:** Maqolada Muqimiyning Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlanib, tatabbu', taxmislар bog'lagani, navoiyona ohangli baytlar tahlil qilingan. Badiiy mahorat masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** g'azal, tatabbu', mahorat, an'ana, badiiy san'atlar, vazn, bayt.

**Аннотация:** В статье анализируется, как Мукими находился под влиянием творчества Алишера Навои, делал татаббуу, тахмис и имел навоийский мелодический стих. Освещается вопрос художественного мастерства.

**Ключевые слова:** газель, татаббуу, искусство, традиции, мастерства вес, байт.

**Annotation:** The article analyzes how Mukimi was influenced by Alisher Navoi's work, made tatabbu', takhmis, and had a Navoi like melodic verse. The issue of artistic skill is covered.

**Keywords:** Ghazal, tatabbu, mastery, tradition, art, weight, byte.

Mumtoz adabiyot an'analarga tayanadi va bunda yakrangliklar hosil qiladi. "Sharq so'z san'ati yuksak darajadagi an'anaviyligi bilan ajralib turadi. Ko'plab qalam ahllarining bu mustahkam qolipni yorib chiqolmay, an'ana qobig'ida qolib ketganliklari ham shundan" [1.6]. Lekin hamma gap iste'dodda, adabiyot tarixida hozirgacha o'qib kelinayotgan mumtoz asarlarda ijodkorning so'z tanlash va uslubga ega ekanligi bilan yashab kelyapti. Adabiyotshunos Z.Qobilova an'ana doirasida ijod qilishni juda murakkab va qiyin jarayon deb baholaydi. Shuningek, ba'zida izdoshlik, adabiy ta'sirlanish chegaralari rioya etilmagani sababli, adabiy o'g'rilik (plagiat) hodisasi ham sodir bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. [2. 43] Darhaqiqat, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida minglab shoirlar ijod qildilar. An'ana doirasida yangilik qila olaganlarigina avlodlar tomonidan mutolaa qilinyapti, o'rganilyapti. Adabiy o'g'rilik sodir qilganlar esa, o'z zamoni chegarasidan o'tolgani yo'q. An'analarning davomiyligini ta'minlovchi nazariy atamalarga: nazira, tatabbu', tavr, tavorud, tazmin, taxmislarni kiritiladi.

Qo'qon adabiy muhitining ko'zga ko'ringan, yetuk ijodkorlaridan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiyyidir. Muqimiyy o'z-o'zidan shoir bo'lib qolmagan. Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Amiriy, Nodiralardan o'qib, ta'sirlanib ijod qilgan va ustozlarining darajasiga yetishga harakat qilgan. Muqimiyning birinchi ustoz Alisher Navoiy edi. "Alisher Navoiy o'zidan keyingi nafaqat turkiy, balki butun Sharq adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Qalam ahli bu zabardast so'z san'atkorini o'zlari uchun ijod yo'lida rahnamo deb bilib, unga ergashganlar, undan

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

mahorat sabog‘ini olganlar, boy va rang-barang merosini o‘qib-o‘rganib, undan ta’sirlanganlar, g‘azallariga tatabbu’lar qilganlar, taxmislar bog‘laganlar. Bu ilhombaxsh ta’sirdan Muqimiylar ijodi ham xoli emas.” [3.46]. Muqimiylar Navoiyning “bor”, “bor edi”, “koshki”, “gul”, “qilmasun”, “etmayin”, “yo Rab”, “kim desun” va boshqa g‘azallari ta’sirida ularga hamohang naziralar bitadi. Muqimiylar she’rlari orasida Alisher Navoiyning “yo Rab” radifli g‘azaliga bitgan nazirasi ajralib turadi. Muqimiylar radifni saqlagan. Qofiya va vazn saqlanmagan. Alisher Navoiy g‘azalida qofiya uchun tanlangan so‘zlar arabcha “tazallum, tarahhum, tavahhum, takallum, tana’um, taazallum, taqaddum”larni tashkil qiladi. Muqimiylar g‘azali qofiyasi arabcha va forscha “ado, davo, oshno, rizo, navo, qaro, muddao, riy, xato, muttaqo” so‘zlaridan iborat. Radif vazifasini bajargan “yo Rab” so‘zi har ikkala ijodkor g‘azallarida Alloh taologa murojaat bo‘lib, baytlarda hayratlanish, taajjub, iztirob ohangini yanada chuqur ifodalashga xizmat qilgan. Vazn masalasiga qaralganda, Navoiy aruzning ramali musammani maxbuni mahzuf (Foilotun failotun failotun failun), Muqimiylar esa hazaji musammani solim (Mafoiylun mafoiylun mafoiylun) vaznida yozgan. Har ikkala g‘azalning matlasida oshiq yorining zulmlaridan iztirobga tushadi va Yaratgandan o‘ziga madad so‘raydi.

Navoiy:

*Necha bo ‘lg‘ay manga hajr ichra tazallum, yo Rab?*

*Ayla bu zulm aro holimg‘a tarahhum, yo Rab. [4.47]*

Qachongacha menga hijron ichra buncha zulm ko‘rsatasan? Yo Rabbim, bu zulm aro holimga rahm et.

Muqimiylar:

*Yutarmen zahri hajr ishqida ul nozik ado, yo Rab,*

*Bu yanglig‘ talh komim, bormu dardimg‘a davo, yo Rab. [5.18]*

Xudo haqqi, ul nozik adoning ishqida hijron zahrini ichaman. Yo Rab, bu achchiq qismatimning dardiga davo bormi?

Hazrat Navoiy mazlumlikka rahm etishini so‘rab Allohga munojot qilayotgan bo‘lsa, Muqimiylar esa bu dardlarga o‘zi davo bormi deb yaratganga murojaat qilmoqda.

Shoir ijodida navoiyona ohanglar ham ko‘p uchraydi. Quyidagi baytda oshiqning ruhiy holati obrazli ifoda qilingan:

*Kechib ko ‘z din, yozay bir xatki, dahr ahlig‘a ko ‘z solmay*

*Bu damkim, ko ‘z savodidin qora, ko ‘z din davotim bor. [4.157]*

Ya’ni: Ko‘zimdan kechib, qorachig‘ini siyoh va kipriklarimni qalam qilaman va shu damda olam ahliga bir xat yozaman.

Muqimiylar salafi an’anasini ijodiy davom ettirgan holda yozadi:

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*Xoma mujgon, ko‘z qarosidin yozib rozi dilim,  
Arzae qildim eshit ma'yusu mushtoqman. [5.97]*

Bu yerda ham kipriklar qalam, ko‘z qorasi siyoh o‘rnida kelib, oshiq dil izhorlarini bayon etishga vosita sifatida talqin qilinadi.

Xalq tilida “ko‘zim uchyapti, kimnidir ko‘raman” degan gap bor. Shu xalqona iborani Navoiy quyidagi baytda go‘zal ifodalaydi:

*Ko‘zum ucharki, humoyun yuzungni ko‘rgay bot.  
Biaynih anga kipriklar o‘lmush ikki qanot [4.245]*

Ya’ni: Yorimni go‘zal yuzini ko‘rganim zahoti ko‘zlarim uchadi, xuddi kipriklarim unga qanot bo‘lgandek.

Baytda oshiq ma’shuqani ko‘rganida xursand bo‘lishi va bu quvonchni ko‘zlar orqali izhor etayotgani anglashiladi.

Muqimiyl esa bunday talqin qiladi:

*Bukun nogah munavvar shomimi aylarga ey ahbob,  
Ko‘zum uchkay magar mehmon kelur mastona-mastona. [5.121]*

Ey do‘sstar, ko‘zim uchyapti shomimni yorug‘ aylagani mehmon kelayotganga o‘xshaydi.

An’analarning bardavomligini ta’minalashda taxmislarning alohida o‘rni bor. Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda taxmisiga alohida janr sifatida qarash ilgari surilmoqda. Jumladan, T.Ruziboyev mustaqil muxammas va taxmisni nazariy jihatdan keskin farqlanuvchi xususiyatlarga egaligi bilan alohida badiiy-estetik hodisa deb hisoblaydi va quyidagi fikrni ilgari suradi: ““Beshlik”o‘zi aslida besh xususiyatga egalik ma’nosini anglatsa, “beshlangan” so‘zi aslida beshlik xususiyatga ega bo‘lмаган, keyinchalik beshlik ko‘rinishiga yetkazilgan hodisa tushunchasini bildiradi. Demak, rus, arab, turk va o‘zbek adabiyotshunosligida aytilgan “beshlangan” tushunchasi taxmis atamasining asl ma’nosini anglatadi, chunki muxammas o‘zi asli besh misrali bandlardan iborat bo‘lsa, taxmis bandlari asli besh misrali bo‘lмаган she’rni beshlantirish asosida vujudga keladi”. [6.19-20].

Muqimiyl Navoiyning “Ey, jamoling lolazoru ko‘zlarin ohu bara”, “Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim”, “Bir kun mani ul qotili Majnun shior o‘lturg‘usi”, “Gulshan ichra yo‘qtur oromim, diloromim kerak”, “Ey latofat kasbida husningga hojatmand gul”, “Kezarman ko‘yida yillar nazar holimga solgay deb”, “Qog‘oz uza kalamni fusunsoz qilmading”, “Kiyik charmi zaif egnimga majnunlug‘ nishoni bas” misralari bilan boshlanuvchi sakkiz g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Muqimiyning Navoiyning g‘azallariga bog‘lagan taxmislardida uning Navoiyga bir ustoz sifatida qaraganligi seziladi. Muqimiyl muxammas bog‘lash uchun g‘azal tanlaganda Navoiyning chuqur ijtimoiy mazmunli g‘azallarini oladi. “Ey, jamoling

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

lolazoru ko‘zlarining ohu bara” matla’si bilan boshlanuvchi mashhur g‘azaliga Muqimiy taxmis bog‘lagan. G‘azal vazni aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) bahrida yozilgan. G‘azalda oshiqning holatlari, ma’shuqaning ta’rif-u tasniflari shoirona ifoda qilingan. Muqimiy ham bu ma’nolarni ijodiy rivojlantirgan.

*Na kelur erdi, ki ilkimdin, man qalloshdin,  
Aylasam oli qadumingga binolar toshdin,  
Lol etib, mardumi g‘ubor chashm birla yoshdin,  
Yor uchun ayvon solibon ko ‘z uyiga qoshdin,  
Kifrigimdin tutturubman davrasig ‘a panjara. [5. 268]*

Navoiy qalamiga mansub baytda oshiq ma’shuqasi uchun ko‘z va qoshidan ayvon soladi va uning atrofini kipriklari bilan panjara qiladi. Muqimiy davom ettirib: “Men yo‘qsil, kambag‘al bo‘lsam qo‘limdan nima ham kelardi. Yorim uchun mardumi g‘ubor va ko‘z yoshlarimdan loy qilib, toshdin binolar solaman”, deb mubolag‘ali tasvirlar bilan ijodiy davom ettiradi.

Muqimiy Navoiyning badiiy barkamol va mashhur g‘azallariga taxmislari bog‘laydi. Shuning o‘zi ham Muqimiy didi baland, salohiyati yuksak shoirligini ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Qobilova Z. Amiriyy va Muqimiy (Monografiya).—Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti. 2020.
2. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
3. Очилов Э. Муқимий ижодида Навоий анъаналари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020, 4-сон.
4. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, X жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.47.
5. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдиалиев А). –Тошкент: Иқтисодиёт, 2021.
6. Ruziboyev T. Taxmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi (Alisher Navoiy an’analari asosida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiya. Namangan, 2023.